


VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 171,8 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 998,0 mln.AQSh dollariga yoki 45,9 % ga ko‘paydi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.


**Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori
ulushga ega bo'lgan davlatlar**
(2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

TSAda eksport hajmi 863,4 mln.AQSh dollariga (37,2 % ga ko'paydi) va import hajmi 2 308,4 mln.AQSh dollariga (49,5 % ga ko'paydi) yetdi.

Hisobot davrida – 1 445,0 mln.AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**20 ta yirik hamkor-davlatlar ichida 4 ta faol tashqi savdo
balansi kuzatilgan davlatlar**
(2022- yil yanvar-sentabr)



Andijon viloyati jahonning 77 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (38,8 %), XXR da (15,1 %), Rossiya Federatsiyasida (10,7 %), Qozog'istonda (10,3 %), Qirg'iz Respublikasida (9,9 %), Turkiyada (2,7 %) va Shvetsariyada (2,1 %) qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Afg'oniston shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)


	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	Koreya Respublikasi	1 010,3	918,0	1 230,0
	<i>Eksport</i>	0,4	0,5	0,7
	<i>Import</i>	1 009,9	917,5	1 229,3
	XXR	240,5	310,6	479,0
	<i>Eksport</i>	42,6	70,4	51,5
	<i>Import</i>	197,9	240,2	427,5
	Rossiya Federatsiyasi	204,9	170,6	338,5
	<i>Eksport</i>	53,2	55,0	116,4
	<i>Import</i>	151,7	115,6	222,1
	Qozog'iston	116,8	255,0	326,2
	<i>Eksport</i>	108,1	247,5	320,8
	<i>Import</i>	8,7	7,5	5,4
	Qirg'iz Respublikasi	182,5	230,6	314,2
	<i>Eksport</i>	161,7	206,2	289,2
	<i>Import</i>	20,8	24,4	25,0
	Turkiya	48,6	65,4	84,6
	<i>Eksport</i>	7,9	17,9	34,0
	<i>Import</i>	40,7	47,5	50,6
	Shvetsariya	0,6	5,9	68,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,6	5,9	68,2
	AQSh	13,5	53,9	60,9
	<i>Eksport</i>	0,3	0,3	0,2
	<i>Import</i>	13,2	53,6	60,7
	Meksika	5,0	4,1	36,8
	<i>Eksport</i>	-	-	0,0
	<i>Import</i>	5,0	4,1	36,8
	Braziliya	14,0	9,6	35,8
	<i>Eksport</i>	-	0,0	0,3
	<i>Import</i>	14,0	9,6	35,5

	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	Hindiston	8,9	12,0	29,9
	<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,7
	<i>Import</i>	8,7	11,8	29,2
	Germaniya	13,2	15,7	28,8
	<i>Eksport</i>	0,1	0,8	0,6
	<i>Import</i>	13,1	14,9	28,2
	Chexiya	15,7	10,9	13,7
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,1
	<i>Import</i>	15,6	10,9	13,6
	Italiya	8,7	10,7	12,0
	<i>Eksport</i>	0,6	2,2	3,9
	<i>Import</i>	8,1	8,5	8,1
	Ozarbayjon	7,9	3,4	11,6
	<i>Eksport</i>	7,2	2,6	11,2
	<i>Import</i>	0,7	0,8	0,4
	Afg'oniston	2,4	2,6	10,5
	<i>Eksport</i>	2,1	2,5	10,5
	<i>Import</i>	0,3	0,1	0,0
	Polsha	6,6	9,0	8,3
	<i>Eksport</i>	0,4	1,0	0,9
	<i>Import</i>	6,2	8,0	7,4
	Slovakiya	4,6	4,9	8,3
	<i>Eksport</i>	-	-	0,0
	<i>Import</i>	4,6	4,9	8,3
	Eron Islom Respublikasi	3,1	7,8	7,5
	<i>Eksport</i>	1,0	0,5	1,0
	<i>Import</i>	2,1	7,3	6,5
	Tailand	48,6	11,2	7,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	48,6	11,2	7,2

Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi
(yanvar-sentabr 2022- yil)*

	Mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	3 171,8	145,9
Andijon sh.	430,3	172,4
Xonobod sh.	62,1	83,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'1	17,5	56,3
Andijon	65,0	119,6
Baliqchi	38,4	6,0 m.
Bo'ston	24,8	137,2
Buloqbooshi	24,1	194,5
Jalaquduq	48,6	146,3
Izboskan	22,8	176,8
Ulug'nor	19,1	96,1
Qo'rg'ontepa	65,6	170,8
Asaka	2 098,4	144,4
Marhamat	23,3	111,9
Shahrixon	76,5	154,4
Paxtaobod	22,0	172,7
Xo'jaobod	131,5	155,4

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari




Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 66,2 % ulush bilan 2 098,4 mln.AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Oltinko'1 tumani 0,6 % ulush bilan 17,5 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi yoki 31,9 % MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,5 % ga ko'paygan.

**Andijon viloyatiining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari
va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 68,1 % ni tashkil etdi.


ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-sentabr)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 415 tani tashkil etib, ular tomonidan 863,4 mln.AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 37,2 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST bo'yicha eksport tarkibi

(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (38,3 %), turli xil tayyor buyumlar (28,4 %), sanoat tovarlari (25,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,5 %) va boshqalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyati XSST bo'yicha eksport tarkibi
(yanvar-sentabr)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami eksport	629,4	863,4	156,0	137,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,1	30,5	62,0	108,6	4,5	3,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,9	44,0	7,3 m.	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,1	4,2	38,3	45,9	1,4	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	10,1	51,1 m.	120,8 m.	-	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,2	99,0	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,3	13,7	68,9	10,5 m.	0,2	1,6
Sanoat tovarlari	160,5	219,2	189,9	136,6	25,5	25,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	256,0	330,7	2,1 m.	129,2	40,7	38,3
Turli xil tayyor buyumlar	169,8	245,3	140,9	144,5	27,0	28,4
Xizmatlar	4,4	8,8	166,1	198,6	0,7	1,0

XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr)


XSST bo‘limi nomi	Mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	29,2	116,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	55,0
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,5	81,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,1	21,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,9	7,3 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3,6	52,0
Moy olinadigan urug‘lar va mevalar	0,3	24,1
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,2	19,2
56- bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	2,2 m.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	10,1	120,1 m.
Ko‘mir, koks va briketlar	0,1	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar		
O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,001	2,2 m.
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan	0,00002	6,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	10,8	67,5 m.
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	1,8	6,2 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,6	141,2
Noorganik kimyo moddalari	0,2	173,2

XSST bo'limi nomi	Mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	181,4	122,3
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'o'z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	19,3	19,9 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9,8	168,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,2	161,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	202,5	83,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	114,2	605,3 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	8,2	74,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	5,2	3,7 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	221,9	144,0
Poyabzal	14,5	151,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	3,7	5,4 m.
Har xil tayyor buyumlar	2,6	75,8

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi

(yanvar-sentabr mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga 751,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 87,0 % ni tashkil etdi.



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2022- yil yanvar-sentabr, % da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining 37,2 %) va Qirg'iz Respublikasi (33,5 %) davlatlari yetakchilik qildi. Mazkur ikki yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi 70,7 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 29,4 mln.AQSh dollari qiymatidagi 86,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga ko'paydi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlari jami eksportning 3,4 % ini tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(2022- yil yanvar-sentabr, o'sish sur'atlari qiymat jihatidan)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>2,6 mln. AQSH dollari</p> <p>5,1 ming tonna</p>  <p>↑ 87,3 %</p>	<p>Karam</p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>5,0 ming tonna</p>  <p>↑ 2,9 m.</p>	<p>Gilos</p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>2,2 ming tonna</p>  <p>↓ 108,7 %</p>	<p>Pomidor</p> <p>2,2 mln. AQSH dollari</p> <p>3,6 ming tonna</p>  <p>↓ 53,0 %</p>
<p>Shaftoli</p> <p>2,6 mln. AQSH dollari</p> <p>3,6 ming tonna</p>  <p>↑ 123,6 %</p>	<p>Bodring</p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>1,0 ming tonna</p>  <p>↑ 49,7 %</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>4,3 mln. AQSH dollari</p> <p>19,4 ming tonna</p>  <p>↑ 123,5 %</p>	<p>Piyoz</p> <p>2,0 mln. AQSH dollari</p> <p>9,5 ming tonna</p>  <p>↑ 110,3 %</p>

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya hamda Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Meva va sabzavot mahsulotlarinig eksport geografiyasi

(2022- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	tonna	AQSh dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	71 742,9	15 947,2	54,2
 Rossiya Federatsiyasi	11 530,1	10 588,4	36,0
 Turkiya	835,2	1 589,6	5,4
 Qozog'iston	956,3	524,8	1,8
 Latviya	677,7	283,6	1,0
 Belarus Respublikasi	438,2	258,0	0,9
 Ozarbayjon	42,7	54,5	0,2
 Avstriya	32,1	43,3	0,1
 Polsha	38,8	43,2	0,1
 Tojikiston	31,7	26,9	0,1
 Armaniston	22,0	23,3	0,1
 Estoniya	40,5	11,9	0,04
 Moldova Respublikasi	16,6	9,2	0,03
 Germaniya	4,0	6,0	0,02
 Chexiya Respublikasi	18,5	6,0	0,02
 Boshqa davlatlar	1,3	1,1	0,0

* qiymat ifodasidan

2022- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,2 % i), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,5 baravar ko'p.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti



Joriy yilda 404,7 mln.AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 32,8 % ga o'sdi.

Yil boshidan 271 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 29 ta davlatiga eksport qilindi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (54,7 %), paxtadan yigirilgan ip (26,2 %) asosiy ulushni egallagan.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

	2021-yil	2022-yil
Jami:	304,8	404,7
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	153,9	221,4
 Paxtadan yigirilgan ip	91,2	106,2
 Naqshli mato	31,7	38,6
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	9,6	9,7
 Ipak va ipak mahsulotlari	4,6	7,3
 Gilamlar	1,4	7,0
 Paxtadan gazlamalar	6,1	5,4
 Paxta mahsulotlari	4,5	3,9




Andijon viloyatining importi

(2022- yil yanvar-sentabr)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 2 308,4 mln.AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan 149,5 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,6 %), sanoat tovarlari (22,4 %) hamda xizmatlar (7,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST bo'yicha import tarkibi

(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 680,1 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 2 142,5 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 165,9 mln.AQSh dollariga yetdi.

Andijon viloyati XSST bo'yicha import tarkibi
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln.AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami import	1 544,4	2 308,4	96,8	149,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,1	11,7	99,8	78,0	1,0	0,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	10,0	33,8 m.	0,0	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,9	16,5	71,5	111,2	0,9	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,9	10,3	89,5	130,4	0,5	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	0,2	55,4	20,4	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	67,9	107,5	86,6	158,2	4,4	4,7
Sanoat tovarlari	267,0	516,2	87,0	193,3	17,3	22,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1 005,5	1 353,2	99,9	134,6	65,1	58,6
Turli xil tayyor buyumlar	83,0	126,7	93,6	152,6	5,4	5,5
Xizmatlar	82,0	166,0	118,9	2,0 m.	5,3	7,2


XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	4,3	57,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,9	85,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,7	8,0 m.
Sabzavotlar va mevalar	1,5	79,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,1	33,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog' och-taxtalar	5,7	126,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5,4	2,5 m.
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	2,8	81,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,3	79,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	6,5	110,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3,9	187,2
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,01	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,2	21,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0003	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	36,9	120,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	26,6	2,5 m..
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	16,3	148,9
Organik kimyo moddalari	11,3	2,3 m..

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	221,6	2,5 m.
Metalldan tayyorlangan buyumlar	121,0	2,2 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	95,9	145,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	44,4	157,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	1 005,9	150,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	122,9	102,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	101,3	83,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	57,0	132,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	54,4	2,0 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	36,1	130,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	31,0	132,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2,2	82,3


2022-yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 11,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga ko'paydi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 69 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi XXR, Rossiya Federatsiyasi, Shvetsariya, AQSh, Turkiya, va Meksika) jami importning 90,8 % ulushini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2022- yil yanvar-sentabr, % da)




Mashinalar va transport asbob-uskunalari importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi 1 353,2 million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,6 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 58,6 % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2022- yil yanvar-sentabr)




2022- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 347,7 mln.AQSh dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi - 890,1 mln.AQSh dollari (65,8 %) va XXR - 243,3 mln.AQSh dollari (18,0 %), Meksika 31,6 mln.AQSh dollari (2,3 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.

Sanoat tovarlari importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 516,1 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,3 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 22,4 % ga yetdi.

Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2022- yil yanvar-sentabr)



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (221,6 mln.AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (121,0 mln.AQSh dollari), rezina buyumlari (95,9 mln.AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (44,4 mln.AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.